

ISH QUOLLARI (أسماء الآلة) NOMLARINING QO'LLANISH XUSUSIYATLARI

USAGE FEATURES OF NAMES OF WORK TOOLS (أسماء الآلة)

Erimmatova Zuxra Azimboyevna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Arab tili tarjima nazariyasi va
amaliyoti kafedrasida o'qituvchisi

Erimmatova Fotima Azimboyevna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Arab tili tarjima nazariyasi va
amaliyoti kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola arab tilidagi أسماء الآلة tushunchasini, uning morfologik asoslari va qo'llanish xususiyatlarini ilmiy tahlil qiladi. Asarda اسم الآلة ning yasallish usullari — مَفْعَل، مِفْعَلَة، فَعَّال، مَفْعَلَة kabi vaznlar misollar asosida o'rganiladi. Shuningdek, ish harakatini bajaruvchi asbob va moslamalarni ifodalashda اسم الآلة ning leksik-semantik roli, texnik va kundalik nutqda qo'llanish samaradorligi yoritilgan. Tadqiqot arab tilini o'rganuvchilar hamda tilshunoslar uchun mazkur mavzuning nazariy va amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ish qurollari, fe'l, uch o'zakli, lug'aviy ma'no, samoiy, qiyosiy
ملخص: تُقدّم هذه المقالة تحليلاً علمياً لمفهوم "أسماء الأدوات" في اللغة العربية، وأساسه الصرفية، وخصائص استخدامه. تتناول الدراسة طرق تكوين أسماء الأدوات - مثل: مَفْعَل، مِفْعَلَة، فَعَّال، مَفْعَلَة - استناداً إلى أمثلة. كما تُسلط الضوء على الدور المعجمي-الدلالي لأسماء الأدوات في التعبير عن الأدوات والأجهزة التي تؤدي أعمالاً، وفعالية استخدامها في اللغة التقنية واللغة اليومية. تُبين الدراسة الأهمية النظرية والعملية لهذا الموضوع لطلاب اللغة العربية واللغويين.

الكلمات المفتاحية: أدوات، فعل، ثلاثي الجذور، المعنى المعجمي، سماوي، مقارنة

Abstract. This article provides a scientific analysis of the concept of أسماء الآلة in the Arabic language, its morphological foundations and features of use. The work studies the methods of formation of مَفْعَل، مِفْعَلَة، فَعَّال، مَفْعَلَة based on examples. It also highlights the lexical-semantic role of أسماء الآلة in expressing tools and devices that perform work actions, and the effectiveness of its use in technical and everyday speech. The study shows the theoretical and practical importance of this topic for students of the Arabic language and linguists.

Keywords: tools, verb, three-root, lexical meaning, heavenly, comparative

KIRISH

Fe'llardan yasalgan ismlardan bir turi – ish qurollari nomlari. Ish qurollari nomlari arab tilshunosligida أسماء الآلة [asmā'u-l-āla] deb nomlangan. Nomidan ham ma'lumki, bu otlar ish-harakatni amalga oshiradigan asbob nomlaridir.

Bu so'z tilshunoslikda ikkita aspektda termin va lug'aviy ma'nosiga ko'ra "آلة" alohida ta'rifga ega. "Lisanu-l-arab" lug'atida bu so'zga quyidagicha ta'rif keladi:
" - فهي مشتقة من ال و معنى ال: رجع، ساس، عمد⁴⁹

"Qaytmoq" – إِيالا، الت الشيء أولاً، "boshqarmoq" – ال الملك رعيته، "tiramoq, tutib turmoq" – ال الخيمة ma'nolarini ifodalaydi.

⁴⁹ لسان العرب. ابن منظور. بيروت - دار صادر 2007م. ص 80

Bu soʻzlarning maʼnolari oʻzidan keyingi soʻzga izofa qilish orqali turli maʼnolarni ifodalaydi. Shuningdek, majoziy maʼnolarni ham ifodalaydi, masalan, الة – ilm, العيش – sogʻlik, yoshlik kabi.

Termin sifatida, lugʻaviy maʼnosiga juda yaqin, Kisoiy oʻz maʼnosida yaʼni asbob maʼnosida ifodalagan. Bu soʻzni termin holida birinchilardan boʻlib Ali ibn Iso Romaniy Sibavayhining asari sharhida keltirib oʻtgan.

Ular ikki turli boʻlib, qiyosiy va samoiydir, yaʼni arablar ishlatgan va bizgacha shu holatda yetib kelgan soʻzlar.

“as-Sarful ‘arobiy va ahkamun va maʼanin” doktor Muhammad Fozil Samirroyi qalamiga mansub asarida mu mavzuga quyidagicha sharh beriladi:

هو اسم يشتق من مصدر الفعل الثلاثي المتعدي للدلالة على الأداة التي يحدث بها الفعل مثل حرث الفلاح الأرض حرثاً، و آلة الحرث هي المحراث.

Tarjima: Feʼldan anglashilgan maʼno mana shu asbob bilan sodir boʻlishiga dalolat qiladigan uch oʻzakli oʻtimli feʼllarning oʻzagidan yasaladigan ismlardir. Misol uchun, dehqon yerni yashilab haydadi, va uning haydash, ishlov berish asbobi omochdir.

هو اسم ما يعالج به. و ينقل و يجيء على مِفْعَلٍ وَمِفْعَلَةٍ وَمِفْعَالٍ ، كالمِفْبُضِ والمِخْلَبِ والمِكْسَحَةِ والمِصْفَاةِ والمِقْرَاضِ والمِفْتَاحِ

Uning yordamida biror bir harakat amaliyot amalga oshiriladigan ismdir. U 3 ta qolip مِفْعَلٍ مِفْعَلَةٍ مِفْعَالٍ da keladi, misol uchun, مِفْبُاض “ushlagich, qoʻl tutgich, qisuvchi asbob”, ملحب

Ish, faoliyat harakatiga munosib, feʼllarining harflari saqlangan holatda asosan 3 ta qolip asosida mehnat qurol nomlari yasaladi, ular: مِفْعَلٌ، مِفْعَلَةٌ، مِفْعَالٌ.

Mana shu qolip asosida 3 oʻzakli feʼllardan ish qurollari nomlari yasaladi:

Sut sogʻiladigan idish	مِفْعَلٌ – مِخْلَبٌ	حلب – يُحْلَبُ
Supurgi	مِفْعَلَةٌ – مِكْسَحَةٌ	كنس – يَكْنَسُ
Kalit	مِفْعَالٌ – مِفْتَاحٌ	فتح – يَفْتَحُ

Bu qoliplar ichida مِفْعَلٌ qolipi ning qisqartirilgan shakli, مِفْعَلٌ qolipi koʻp qoʻllaniladi. Bu fikrni qoʻllab quvvatlashda, barcha مِفْعَلٌ qolipi asosida yasaladigan soʻzlar مِفْعَالٌ qolipidan ham yasalishi mumkinligi keltiriladi. Misol uchun: مِقْرَضٌ – مِقْرَاضٌ shakllarida qoʻllanishi mumkin. Lekin, مِفْعَالٌ qolipidagi barcha soʻzlar ham مِفْعَلٌ qolipidan yasash toʻgʻri boʻlmaydi⁵⁰. Yuqoridagi ish qurollari qoliplarida birinchi oʻzak harfi ميم va u kasrada, عين barobaridagisi esa fathalidir. ميم harfining “kasra” harakatida kelishiga sabab sifatida uning masdar va makonni ifodalaydigan ismlardan farq qilishi uchunligi ham taʼkidlanadi⁵¹. Bu vaznlarda 3 oʻzakli, ziyoda harflardan xoli feʼllar keladi, boshqa feʼl boblarida ish qurol nomlari kelmagan⁵². Bular barchasi qiyosiydir.

ميم vaznidagi ushbu “ميمعاد” kalimasi «mimlik masdar»mi yoki «ismi zamon va makonmi» yoki «ismi olat»ligi toʻgʻrisida ikkilanishlar boʻlishi mumkin. Biz bu kalimaning siyoqiga qarab yo الوعد (vaʼda berish) maʼnosidagi masdar, yo زمان الوعد

⁵⁰ أبو البقاء يعيش ابن علي ابن يعيش الموصلي. شرح المفصل في صناعة الإعراب لمختصري. دار الكتب العلمية: بيروت- لبنان. – 152/4 ص

⁵¹ كتاب المفيد في التصريف الشيخ الإمام جار الله الامة فخر خوارزم محمود الزمخشري

⁵² Ibodulloh Ahrorov. Taysirus sarf (Yengil va oson sarf).T.: -2021.-26 B.

(va'dalashilgan vaqt) ma'nosidagi noqiyosiy ismi zamon, yo مكان الوعد (va'dalashilgan joy) ma'nosidagi noqiyosiy ismi makon bo'ladi. Yuqorida zikr qilinganidek, مِفْعَال vaznida kelgan ismlarni 5 toifaga ajratish mumkin, ular:

1. Ismi olat. Masalan: «kalit», «مفتاح», «arra», «متشاك», «tish tozalagich».
2. Ismi folining mubolag'asi. Misol uchun: «sergap», «مقدم», «dovyurak», «o'ta saxiy», «معطاء».
3. Masdar. Masalan: «va'da berish», «ميرصاد», «kuzatish». Ammo bu vazndagi masdarlar «mimli masdar» deyilmaydi.
4. Noqiyosiy ismi zamon. Masalan: «va'dalashilgan vaqt», «ميرصاد», «kuzatish vaqti».
5. Noqiyosiy ismi makon. Masalan: «va'dalashilgan joy», «ميرصاد», «kuzatish joyi- pistirma».

Aslini olib qiyoslansa, مفعال vazni payt holi va o'rin holiga xos qiyosiy vaznlardan emas. U yo asbob nomi uchun yoki ismi foilning mubolag'a shakli uchun ishlatiladi. Biroq arablar bu siyg'ada masdarga, zamonga yoki makonga dalolat qiluvchi lafzlarni ishlatganlari uchun sarf olimlari buni qiyos qilinmaydigan holat, deyidilar. Shuningdek ayrimlar مفعال vaznidagi ismi zamon-makonni aslida vasf(ismi foilning mubolag'asi)ekani bilan izohlaydilar. Masalan, أنا بالمرصاد (men pistirmadaman) degan gapni aslida المرصاد (men kuzatish ko'p sodir bo'ladigan joydaman) bo'lgan deb izohlaydilar.

Yuqoridagi qoliplarga qo'shimcha tarzda عين va ميم barobaridagi harflari domkali bo'luvchi ish qurol asboblari uchun so'z yasovchi qoliplar mavjud⁵³.

"ما جاء مضموم الميم و العين من نحو «المُسْعَط»، «الْمُنْخَل»، «الْمُدْهَن»، «الْمُكْحَلَّة»، «الْمُخْرَضَة»، فقد قال سيويوه: لم يذهبوا بها مذهب الفعل، لكنها جعلت أسماء لهذه الأوعية "

Nahvshunos olimlar ish qurol otlariga quyidagi vaznlar ham mansub bo'lishini keltirib o'tishgan:

- طائرة (samolyot) kabi so'zlar. طابعة (muhr), رافعة (richag), ساقية (charxpalak) – فاعلة.
- ناقوس (qo'ng'iroq) kabi so'zlar. حاسوب (kompyuter), ساطور (kata pichok) – فاعول.
- خَرَامَة (parma) kabi so'zlar. تَلْجَة (muzlatkich), كَسَّارَة (chaqish uchun ombur) – فَعَالَة.
- زناد (chaqmoqtosh) kabi so'zlar. لجام (jilov), قطار (poyezd) – فعال.
- منبّه (uyg'otuvchi), تولّد (tug'diruvchi) – مفعّل.
- هاتف (telefon) kabi so'zlar yasalishi mumkin. – فاعل.

Asbob nomlari turli ma'noda bo'lishi sababidan uning yasalishida ham farq bo'lishi mumkin. Masalan: السكّان والسكين من (sken) – bu ikkisi ham asbob nomlari bo'lib, ikkisiga ham asos sifatida bitta fe'l xizmat qilmoqda, ammo ma'no o'zgarganligi sababli turli vaznlardan turlicha ma'no anglashilgan. سَكّان – rul(kemalarning yurishi va to'xtashidagi asosiy qism), سَكّين – pichok.

Shuningdek, ناقور kabi asbob nomlari uchun ham asos نقر hisoblanib, vazn o'zgarishi bilan ma'no ham o'zgarganini ko'rishimiz mumkin. منقار – tumshuq(qush), منقر – dastaki so'qa (asbob), ناقور – nay, dud ya'ni qiyomat kuni farishta chaladigan asbob, ya'ni Alloh taolo o'z kitobida Muddassir surasi, 8- oyatida marhamat qiladi:

أبو البقاء يعيش ابن علي ابن يعيش الموصلي. شرح المفصل في صناعة الإعراب لزمخشري. دار الكتب العلمية: بيروت- لبنان. – 153/4 ص 53

{ فَإِذَا تَقَرَّ فِي النَّفُورِ } (Bas, vaqti kelib, dudga puflansa...) ⁵⁴

kabi va umuman ikkilantirishni o'z ichiga olgan vaznlardan hosil bo'lgan asboblarda ish-harakat ko'p mart bo'lganligini ifoda qiladi. Misol uchun, قَذَاف – (otuvchi, katapult), حَرَّاقَة – (minonosets ya'ni tarpedalar bilan qurollangan harbiy kema turi), سَكِين – (pichoq) qurbonlikka atalgan hayvonlarni "tinchlantirish"da bu asbobdan ko'p foydalanilgani uchun mana shu vazndan hosil bo'lgan.

فاعلة vaznlaridan hosil bo'lgan asbob nomlari ko'pincha "o'rash", "o'z ichiga qamrab olish" ma'nolarini bildiradi. Masalan: حَزَام (belbog, kamar) jismni o'z ichiga oladi va uni o'raydi, خَمَار (ro'mol, yopinchiq) boshni o'z ichiga oladi va boshni o'raydi. Shu kabi عَمَامَة – salla, كَنَانَة – o'qdon va لَفَاف – (ko'rpa), غَطَاء (yopinchiq, dasturxon), رَدَاء – (plash, kiyim)lar ham mansub.

فعولة vaznidagi asbob nomlari harakatni bajarishda mubolag'aga yoki asbobning o'zida haddan ishirishga dalolat qiladi. Masalan: نَاعُور – (suv sug'orish qudug'I g'ildiragi), سَاطُور – (katta pichoq), تَاحُونَة – (tegirmon).

Ba'zi ish asboblari nomlari mavjudki, ma'lum fe'l yoki qoida asosida yasalmagan. Bizga shu holatida tub so'z shaklida yetib kelgan. Bu arab tilshunosligida simoiy usulda yetib kelgan deb yuritiladi: قَلَمٌ، سَيْفٌ، سَوْكَةٌ، va boshqalar.

Bu so'zlar gapda fe'ldan yasalgan bo'lsa ham ot so'z turkumiga o'tib qolgani bois unga xos morfologik ko'rsatkichlarni o'zida mujassamlashtiradi. Otlar kabi kelishiklarda, sonda, aniqlik va noaniqlik kategoriyalarini qabul qiladi. Ish qurol nomlarining gapda xos ko'rsatgichga ega emas, gapda egallagan mavqe'iga binoan sintaktik jihatdan tahlilga tortiladi.

Ish qurol nomlari Qur'oni karimning bir qancha suralarida ham uchraydi. {وَعِنْدَهُ مَفَاتِيحُ الْغَيْبِ لَا يَعْلَمُهَا إِلَّا هُوَ وَيَعْلَمُ مَا فِي الْبَرِّ وَالْبَحْرِ وَمَا تَسْقُطُ مِنْ وَرَقَةٍ إِلَّا يَعْلَمُهَا وَلَا حَبَّةٍ فِي ظُلُمَاتِ الْأَرْضِ وَلَا رَطْبٍ وَلَا يَابِسٍ إِلَّا فِي كِتَابٍ مُبِينٍ}

G'aybning kalitlari Uning huzurida bo'lib, ularni Uning O'zidan boshqa hech kim bilmas. U yerdagi, quruqlik va dengizdagi narsalarni biladilar. Bitta yaproq uzilib tushmaydiki, magar uni ham biladir. Yer tubidagi bir dona don bormi, ho'lu quruq bormi, barchasi Ochiq kitobda bordir ⁵⁵.

Bu oyatda ish qurol nomlaridan مِفَاتِيحُ so'zi kelmoqda. Bu so'z ot kesimli gapda ega vazifasida bo'lib, bosh kelishikda turibdi.

{اللَّهُ نُورُ السَّمَوَاتِ وَالْأَرْضِ مِثْلُ نُورٍ كَمِشْكَاةٍ فِيهَا مِصْبَاحٌ الْمِصْبَاحُ فِي زُجَاجَةٍ الزُّجَاجَةُ كَأَنَّهَا كَوْكَبٌ دُرِّيٌّ يُوقَدُ مِنْ شَجَرَةٍ مُبَارَكَةٍ زَيْتُونَةٍ لَا شَرْقِيَّةٍ وَلَا غَرْبِيَّةٍ يَضِيءُ وَلَوْ لَمْ تَمْسَسْهُ نَارٌ نُورٌ عَلَى نُورٍ يَهْدِي اللَّهُ لِنُورِهِ مَنْ يَشَاءُ وَيَضْرِبُ اللَّهُ الْأَمْثَلَ لِلنَّاسِ وَاللَّهُ بِكُلِّ شَيْءٍ عَلِيمٌ}

Alloh osmonlar va yerning nuridir. Uning nurining misoli huddi bir tokcha, uning ichiga chiroq qo'yilgan, chiroq esa, shisha ichida, shisha esa, go'yo durdan bo'lgan bir yulduz bo'lib, sharqiy ham, g'arbiy ham bo'lmagan muborak zaytun daraxtidan yoqiladi. Uning moyi o'ziga olov tegmasa ham, yoritib yuboray deydir. (Bu) nur ustiga nurdir. Alloh xohlagan odamni O'z nuriga hidoyat qilur. Alloh odamlarga misollarni keltirur. Alloh har bir narsani o'ta bilguvchidir ⁵⁶.

⁵⁴ Muddassir surasi, 8-oyat

⁵⁵ An'om surasi 58-oyat

⁵⁶ Nur surasi, 35-oyat

Mazkur oyatda **مَسْكُوتٌ** ish qurol nomi **مَفْعَلَةٌ** vaznidadir. Bu soʻzning maʼnosida koʻpgina bahslar mavjud.

{وَالِى مَدِيْنٍ اَخَاهُمْ شُعَيْبًا قَالَ يَقُوْمُ اَعْبُدُوْا اللّٰهَ مَا لَكُمْ مِّنْ اِلٰهٍ غَيْرُهُ وَلَا تَنْقُصُوْا اَلْمِكْيَالَ وَالْمِيزَانَ اِنِّىْ اَرٰكُمْ بِخَيْرٍ وَّ اِنِّىْ اَخَافُ عَلَيْكُمْ عَذَابَ يَوْمٍ مُّحِيْطٍ}

Va Madyanga birodarlari Shuʼaybni (yubordik). U: «Ey qavmim, Allohga ibodat qiling, siz uchun Undan oʻzga iloh yoʻq. Oʻlchovni va tortishni kamaytirmanglar. Albatta, men sizlarning yaxshilikda ekanliklaringizni koʻrib turibman. Albatta, men sizlarga qamrovli kun azobidan qoʻrqmoqdaman⁵⁷».

Yuqoridagi oyatda **اَلْمِكْيَالَ وَالْمِيزَانَ** soʻzlari ish qurol nomlari hisoblanadi. Gapda vositasiz toʻldiruvchi boʻlib, tushum kelishigida turibdi.

XULOSA

Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, arab tili oʻzining iyjozlik xususiyatiga ega ekanligi bilan qolgan tillardan ustundir. Chunki, arab tilida oʻrin-payt hollari, masdar, asbob nomlari deyarli oʻxshash vaznlardan hosil qilinyapdi. Ularni farqlash uchun esa matnda kelgan oʻrniga ahamiyat qaratishimiz lozim. Ushbu nomlarni toʻgʻri tushunish va ulardan foydalanish orqali biz arab tilining goʻzalligi va murakkabligidan toʻliq foydalanishimiz, yanada samarali muloqotga matnlar va hadislarni chuqurroq tushunishga erishimiz mumkin.

Ish-harakatni amalga oshirish vositasini bildiruvchi otlarlar qurol otlari deyilib, koʻpincha bu asbob nomlari I bobdagi oʻtimli feʼllardan **مَفْعَلٌ مَّفْعَلَةٌ** vaznlarida hosil boʻladi. Hozirgi kunimizda arab tilida yuqoridagi vaznlardan tashqari **فَعَالَةٌ** vaznidan ham asbob nomlari hosil qilinmoqda. Bitta feʼldan birnecha vaznlarga solish orqali turli maʼnodagi qurol nomlari hosil boʻlishini misollar bilan koʻrib, tanishib chiqdik.

Shuningdek, **مَفْعَلٌ** vaznidagi ism qaysi turga mansub ekanligi toʻgʻrisidagi qarashlar misollar bilan yoritildi. Aslini olib qiyoslansa, **مَفْعَلٌ** vazni payt holi va oʻrin holiga xos qiyosiy vaznlardan emas. U yo asbob nomi uchun yoki ismi foilning mubolagʻa shakli uchun ishlatishlari, biroq arablar bu siygʻada masdarga, zamonga yoki makonga dalolat qiluvchi lafzlarni ishlatganlari uchun sarf olimlari buni qiyos qilinmaydigan holat deb taʼkidlashlari qayd etildi. Shuningdek ayrimlar **مَفْعَلٌ** vaznidagi ismi zamon-makonni aslida vasf(ismi foilning mubolagʻasi)ekani bilan izohlanishi misollarda ochib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1.1 Akmalxonov A.A. Sakkokiyning “Miftahu-l-ulum”asarida nahv va sarf masalalari: Dis...filol.falsafa.dok. - Toshkent, 2020. – 377 b.

1.2 Насирова М.А. Махмуд Замахшарийнинг “Ал-Унмузаж фи-н-нахв” рисоласи – Т.: TDSHI, 2005.

1.3 Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. -T.: Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat nashriëti, 1997. I jild.

1.4 Islomov Z. Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosi.-Toshkent. 2021

1.5 1.1. Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. Sharhlar muallifi va tarjimon U. Uvatov. – T.: Kamalak, 1991

1.6 أبو القاسم محمود بن عمر الزمخشري.المفصل في علم العربية. تحقيق الدكتور فخر صالح.قدارة.عمان.دار عمار.2003م-565ص

⁵⁷ Hud surasi, 85-oyat

- أبو البقاء يعيش ابن علي ابن يعيش الموصلي. شرح المفصل في صناعة الإعراب 1.7
لزمخشري. الجزء الرابع. دار الكتب العلمية: بيروت- لبنان
- ابن الأنباري. نزهة الألباء في طبقات الأدباء. المحقق: إبراهيم السامرائي. ممتبة 1.8
المنار. 1405\1985
- علي بن يوسف القفطي. إنباه الرواة على أنباه النحاة. المحقق: محمد أبو الفضل إبراهيم. مؤسسة 1.9
الكتب الثقافية في بيروت. 1406/1986
- محمود محمد أبو ساكور. دراسة وصفية تحليلية "موقف ابن هاجب في أماليه مما أملاه عن 1.10
المفصل للزمخشري" فلسطين - الخليل. 2021م. -430ص